

**ZAMONAVIY MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI
VA IMKONIYATLARI**

Yuldashev Kudrat Abduvaxatovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası
dotsenti, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD) podpolkovnik*

Ubaydullaev Sherzod Muzaffarovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi mayor
+99890956-95-93*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy masofaviy ta'lim texnologiyasi mazmuni va imkoniyatlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.*

Аннотация: *в данной статье представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по содержанию и возможностям технологии дистанционного обучения.*

Annotation: *this article provides scientific-based suggestions and recommendations on the content and capabilities of distance learning technology.*

Tayanch so'zlar: *zamonaviy, masofaviy ta'lim, masofaviy ta'lim texnologiyasi, internet, ta'lim.*

Ключевые слова: *дистанционное образование, технологии дистанционного обучения, интернет, эдусатион.*

Keywords: *distance education, distance learning technology, Internet, education.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida 2022 yilning 3 oktyabr kuni Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 559-son qarori qabul qilindi, ushbu qarorning 1 ilovasi bilan «Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom» tasdiqlandi.

Masofaviy ta'lim quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi: ishtirokchilarning interfaolliigi; talabalarning identifikatsiya qilinishi; yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning pedagogik maqsadga muvofiqligi; ta'lim berishning ochiqligi va moslashuvchanligi[2].

Masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minotga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat: Masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minot – LMS platformasi SCORM standartlariga mos hamda unda avtoproktoring tizimi mavjud bo'lishi lozim. Masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minot – LMS platformasi quyidagi komponentlardan tashkil topadi: axborot-resurslari komponenti – o'quv adabiyotlari, darsliklar, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda tadqiqot natijalari aks etgan ilmiy asarlardan

foydalanishni ta'minlaydi; boshqarish komponenti – tizimning xizmat ma'lumotnomasi va foydalanuvchilar reestrini yuritish, foydalanish huquqlari hamda foydalanuvchilarning tizimga kirishda shaxsiy parametrlarini belgilash hamda foydalanuvchilar harakatlarini qayd etib borish, autentifikatsiya (shaxsni aniqlash) va foydalanuvchilarni boshqarishni ta'minlaydi; davomat va o'zlashtirishni hisobga olish komponenti – resurslardan foydalanishni hisobga olishga hamda ushbu resurslarni o'zlashtirishga imkon beradi, talabalarning individual o'quv rejalarini shakllantiradi va o'zlashtirish natijalarini tahlil qiladi; kommunikatsiya komponenti – foydalanuvchilarga o'zaro interfaol axborot almashish (forum, chat, xabar, elektron pochta, videokonferensiya tashkil etish), xabarlar olish hamda tizim, kurslar va pedagog kadrlar bo'yicha teskari aloqa orqali ma'lumotlar almashish imkoniyatini yaratadi; kontingentni hisobga olish komponenti – kontingentning yagona reestrini yuritishga imkon berib, talabalar va pedagog kadrlarga oid ma'lumotlarni kiritish va saqlash, shuningdek ularning shaxsiy kabinetlariga kirish va qidirishni ta'minlaydi; kurslarni boshqarish komponenti – o'quv kontenlarini boshqarish, tahrirlash, sinxron va asinxron rejimda o'tkazilgan mashg'ulotlarning videodarslarini yuklash (import/eksport), test sinovlarini tashkil etish, tashqi ta'lim resurslariga giperhavolalarni kiritish, topshiriq va vazifalarni qo'yish imkoniyatlariga ega bo'ladi; o'qitishni boshqarish komponenti – talabalarni kursdan kursga o'tkazish, ularga kreditlar berish va qaytadan o'qitish jarayonini nazorat qiladi, tashkiliy-metodik vositalarni (mashg'ulotlar jadvali, konsultatsiyalar, konferensiyalar, vazifani topshirish muddati, vebinar, imtihonlar va boshqalar) boshqaradi, talabalarning o'zlashtirishiga doir ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan holda shakllantiradi, o'rganiladigan fanlar ro'yxatini shakllantiradi va yangilab boradi; statistika komponenti – talabalar kontingenti, o'zlashtirish ko'rsatkichlari va kurslarning o'quv kontenti bilan to'ldirilganligi haqidagi ma'lumotlardan iborat axborot olish imkoniyatini beradi, ta'lim jarayoniga oid hisobotlarni shakllantiradi, talabalarning harakati (o'qishga qabul qilish, ko'chirish, chetlashtirish, qayta tiklash) haqidagi ma'lumotlarni yuritadi, o'qishni bitirgan, o'qishini ko'chirgan yoki chetlashtirilganlar haqidagi ma'lumotlarni arxivlashtiradi; talabalar bilimini nazorat qilish komponenti – o'quv kontenti mazmuniga mos va testologiya talablari asosida shakllantirilgan nazorat materiallari bazasi va test tizimini, imtihon jarayonini tashkil etish uchun avtoproktoring tizimini o'zida jamlaydi[4].

O'qituvchining yangi roli – masofaviy o'qitish o'qituvchining o'qitish jarayonidagi rolini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Endi o'qituvchi o'zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda berayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi. Sifat – masofaviy o'qitish usuli ta'lim berish sifati bo'yicha kunduzgi ta'lim turidan qolishmaydi. Masofaviy ta'limda mahalliy va chet ellik pedagoglarni o'quv jarayoniga jalb qilib, eng yaxshi o'quv-metodik darsliklar va nazorat qiluvchi testlardan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etish sifatini oshirishi mumkin. Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim turiga nisbatan birmuncha quyidagi qulayliklarga ham egadir: ta'lim olishda yangi imkoniyatlar (ta'lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog'liq emasligi va b); ta'lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi; ta'lim olishni xohlovchilar sonining oshishi; sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi; xalqaro integratsiyaning kuchayishi[5].

Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari bu – tanlangan o'qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jarayonini ta'minlovchi o'qitish uslublari

majmuasidir. Masofaviy o'qitishning ta'lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagi qo'llanish shartlari bilan farqlanadi: geografik shartlar (masalan, mamlakat hududi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi); mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi; kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi; ta'lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo'llanish darajasi; • ta'limda qo'llaniladigan an'analar; masofaviy o'qitish tizimi uchun ilmiy- pedagog kadrlarning mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar. Masofaviy ta'lim asosan quyidagi texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi: Reproduktiv texnologiyalar. Reproduktiv texnologiyalar o'quv materiallarini tarqatish orqali amalga oshiriladi. Texnologiyaning asosiy maqsadi – o'quv-metodik materiallarni o'quvchiga jo'natish. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqat elektron pochta orqali amalga oshiriladi. Interaktiv texnologiyalar. Masofaviy ta'limning ushbu texnologiyasi yakka shaxsga yo'naltirilgan o'qitish modeliga asoslangan. Interaktiv texnologiyaga misol tariqasida Keys texnologiyalarini keltirish mumkin. Bunda tarmoqda o'qiyotganlarga ma'lum fan bo'yicha to'liq o'quv-uslubiy materiallar (o'quv dasturlari, o'quv materiallari, o'z-o'zini tekshirish topshiriqlari va b.) etkazib beriladi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqat elektron pochta orqali amalga oshiriladi. Birgalikdagi ta'lim texnologiyalari. Mazkur texnologiyada o'qish kichik o'quv guruhlarida olib boriladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ko'p funksiyali, jamoaviy foydalaniladigan, axborotni jo'natish texnik vositalari yordamida virtual muhit yaratiladi. O'quvchilarning jamoaviy harakati o'qituvchi nazorati ostida bo'ladi. Masofaviy ta'lim platformalari deyilganda, masofaviy ta'lim xizmatiga qaratilgan o'quv jarayonini boshqarish va amalga oshirishni o'z ichiga olgan dasturiy-texnik vositalar majmui tushuniladi. Bugungi kunda masofaviy ta'lim texnologik platformalari "TV-texnologiya", "Keys texnologiya", "Tarmoq texnologiya" ko'rinishida amalga oshirilmoqda. Telekommunikatsion (TV) texnologiya. TV-texnologiyada o'quvchilarga o'quv-uslubiy materiallarni etkazish va doimiy o'qituvchi-tyutor maslahatini tashkillashtirish maqsadida televidenie tizimidan foydalanish ko'zda tutiladi. Televidenie va teleko'priklardan foydalanib "jonli" mashg'ulotlar tashkil etish mumkin. Keys-texnologiyalari. Keys texnologiyalari matn, audioko'rinishli va multimedia o'quv -uslubiy materiallar to'plami (keysar)dan foydalanish va o'quvchilarga mustaqil o'rganishlari uchun o'qituvchi-tyutor tomonidan doimiy maslahatlarni berishga asoslangan[6]. Tarmoq texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlaridan o'qituvchi va o'quvchi bilan o'zaro bog'liqdagi har xil interaktiv darajali va o'quvchilarni o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash uchun qo'llaniladi. Tarmoq texnologiyalari asinxron va sinxron turlarga bo'linadi. Asinxron tarmoq texnologiyalari. Hozirgi kunda ta'lim tizimimizda ko'proq asinxron texnologiyalarning ikki guruhidan foydalanilmoqda: - Computer-Based training (SVT) – turli darajali interaktivlikdagi kompyuter o'rgatuvchi dasturlar vositasidagi mustaqil ta'lim. Web-Based training (WBT)- turli darajali interaktivlikdagi kompyuter o'rgatuvchi dasturlar asosidagi mustaqil va jamoaviy ta'lim. Sinxron tarmoq texnologiyalari bu zamonaviy masofaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, bunda ta'lim ishtirokchilari o'quv jarayonida bir-biridan uzoq hududda joylashgan bo'ladi. Sinxron texnologiyalar videokonferensiya vositalari va birgalikda ishlash qo'shimcha jihozlaridan foydalangan holda virtual sinflar yaratishga asoslangan. Sinxron texnologiyalar bir vaqtning o'zida virtual sinfdagi barcha o'quvchilarning qatnashishlarini talab qiladi va bir mashg'ulot davomida o'qitishning turli modellarini birga qo'shib olib borish imkoniyatini yaratadi.

Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalari quyidagi ikki guruhga ajratmish mumkin: Interaktiv texnologiyalar va •Internet masofaviy ta'lim portali. Video va audio konferensiyalar. Elektron pochta orqali ta'lim. Internet orqali mustakil ta'lim olish. Masofadan boshqarish tizimlari. Onlayn stimulyator va o'quv dasturlari. Test topshirish tizimlari. Interaktiv bo'lmagan texnologiyalar: Video, audio va bosma holda chop etilgan materiallar. Televizion va radio ko'rsatuvlar. Disklarda joylashgan dasturlar. Video va audio konferensiyalar - bu Internet va boshqa telekommunikatsion aloqa kanallari yordamida ikkita, uzoqlashgan auditoriyalarni telekommunikatsion texnologiyalar orqali bir- biri bilan bog'lab ta'limni tashkil etish yo'li. Lekin, video va audio konferensiyalar uchun katta hajmda maxsus texnika, yuqori tezlikga ega bo'lgan aloqa kanali va o'qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish zarur bo'ladi. Internet orqali mustakil ta'lim olish - bu ko'pgina Internet saytlarida joylashgan katta hajmdagi ma'lumotlar ustida mustaqil ravishda ishlash va yangi bilimlar olish yo'li. Elektron pochta orqali ta'lim esa eng ommaviy Internet xizmatlaridan foydalanib, talaba va o'qituvchi o'rtasida xatlar orqali muloqot o'rnatib ta'lim olish yo'li. U yordamida xar xil test, topshiriq, savol-javob va ko'rsatmalarni (matn, grafika, multimediya, dasturlar va boshqa ko'rinishlarda) jo'natib qabul qilishimiz mumkin. Uzoqdan boshqarish tizimlari - murakkab dastur, tizim va uskunalarni real holatda boshqarish va ularda ishlash imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus tizimlar yordamida bilim olish yo'li. Uzoqdan boshqarish tizimlarning asosiy vazifasi talabaga faqatgina amaliy bilimlarni berishdan iboratdir. Stimulyator, elektron darsliklar va o'quv dasturlar - bu asosan nazariy va amaliy bilimlarni kompyuter dasturlari orqali talabalarga on-layn holatida uzatish yo'li. Stimulyator va elektron darsliklar hozirgi kunda ta'lim sohasida juda keng qo'llanilyapti. Test topshirish tizimlari - bu maxsus dasturlar yordamida talabalarning amaliy va nazariy bilimlarini tekshirib, baholashda foydalaniladi.

Internetning masofaviy ta'lim portali bu maxsus Internet saytlar (on-layn resurslar). Ushbu saytlarning asosiy vazifasi - ta'lim jarayonini tashkil qilish yoki talaba va o'qituvchi o'rtasida elektron on-layn muloqotni o'rnatish, o'qituvchilarga o'quv materiallarini saytga kiritish, talabalarga ushbu ma'lumotlar ustida ishlashga hamda boshqa masofaviy ta'lim servislaridan foydalanishga imkoniyat yaratishdan iboratdir[7].

Xulosa shuki, masofaviy ta'lim dunyo miqyosida keng qo'llanilayotganligi bois yurtimizda ham bunday ta'lim olish turidan o'rinli va bardavom foydalanishimiz maqsadga muvofiq. Ushbu tizimning psixologik afzalligi va kamchiliklaridan o'z o'rnida foydalanishda ahamiyat berish va uni samarali tomonga boshqarish lozim. Talaba yoshlar va boshqa masofaviy ta'limdan foydalanayotgan yohud foydalanish istagida bo'lgan shaxslarga masofaviy ta'limning konstruktiv tomonlarini tushuntirish va dunyo ta'lim sistemasi darajasiga ko'tarish hozirgi zamon ta'limining talablaridan ekanligini unutmaslik kerak. Zero, ushbu ta'lim internetdan va o'z vaqtidan maqsadsiz, samarasiz foydalanayotgan yoshlarni vaqt va imkoniyatdan foydalanishga imkon yaratadi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

[1] Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 3 октябрдаги “Олий таълим ташкилотларида масофавий таълим шаклини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 559-сон қарори.

[2] Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 3 октябрдаги “Олий таълим ташкилотларида масофавий таълим шаклини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 559-сон қарори.

[3] Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 3 октябрдаги “Олий таълим ташкилотларида масофавий таълим шаклини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 559-сон қарори.

[4] Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 3 октябрдаги “Олий таълим ташкилотларида масофавий таълим шаклини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 559-сон қарори.

[5]<https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/04/Замонавий-таълим-технологиялари-Укув-кулланма.pdf>

[6]
https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_dcc09ceb7d5c435c831ba802ffc403ce.pdf?index=true

[7] https://www.ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_1/930-936.pdf

[8] https://www.ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_1/930-936.pdf